ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ERGONIMLARNING MORFOLOGIK DERIVATSIYASI XUSUSIDA

Kultayeva Fazilat Baxtiyarovna,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

O'zbek tilshunosligida derivatsiya masalasi turlicha, aniqrog'i ikki xil talqin etiladi. Avvalo, bu termin o'zbek tilshunosligida yangi bo'lib, zamonaviy talqinlardagina o'z ifodasini topgan. «Lingvistik qomusiy lug'at» da quyidagicha bayon etilgan: «Derivatsiya (lot. Derivatio-ajralish; yasalish) - bir til birligi (derivatlar) asosida boshqasining vujudga kelishi, jo'n holatda o'zakning affiksatsiya asosida kengayishi yoki so'zlarning jipslashuvi, qo'shiluvi bo'lib, inchunun u so'z hosil qilishga yohud hatto so'z yasashga tenglashtiriladi. Keng ma'noda derivatsiya so'z o'zgarishi va so'z yasalishi, shuningdek, asos birli yordamida izohlanadigan yohud undan ma'lum bir qoidalar, operatsiyalar asosida keltirib chiqariladigan har qanday ikkilamchi til belgisi, shu bilan birga, gap hosil qilish jarayonini atovchi sifatida tushuniladi. Derivatsiya jarayonida asos birlining shakli (strukturasi), semantikasi o'zgarib ketadi. Mazmuniy planda belgini yangi ma'noda, yangi vazifada qo'llashga yoki eskisini qayta qurishga qaratilgan bo'ladi.

O'tgan asrning 30-yillarida E. Kurilovich tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan derivatsiya tushunchasida leksik va sintaktik jihatlar farqlanadi. Olim leksik derivatsiya deganda asos birli zamirida yangi lug'aviy ma'no hosil qilish, ya'ni so'z yasashni(ish-chi), sintaktik derivatsiya deganda esa faqat sintaktik vazifa o'zgarishini tan oladi (tillo-qimmatbaho metal (ega), tillo soat (aniqlovchi). Ana shunday farqlashlar natijasida so'z doirasidan tashqariga chiqish holatlari kengaydi. Asos va hosila orasida «o'sib chiquvchilik» yohud «asos bo'luvchilik», umuman olganda, vorisiylik munosabati derivatsion munosabat deyiladi.

Ma'lum bo'ladiki derivatsiya termini o'zbek tilshunosligida ham ikki xil ma'noda:

a) so'z yasalishi;

b) sintaktik hosilalarning vujudga kelishi ma'nolarida ishlatilmoqda.

Biz uchun muhimi leksik derivatsiya bo'lib, bugungi kunda tilshunosligimizda nega u so'z yasalishiga muqobil ravishdagi atama mohiyatiga ega bo'ldi, yoinki derivatsiya va so'z yaslishi haqiqatan ham mutloq muqobil terminlarmi? Biz derivatsiya atamasini so'z yasalish atamasining «zamonaviy ko'rinishi» sifatida talqin etamiz.

O'zbek tilshunosligida derivatsiya haqida yaratilgan ilk o'quv qo'llanmalaridan biri bo'lgan B. Mengliyevning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kitobida derivatsiya atamasini so'z yasalish atamasidan kengroq ma'noda, ya'ni so'z yasalishi, uning diaxron va sinxron turlari, so'z yasash usullari kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning sohasi sifatida qarashga intilish seziladi.

O'zbek tili so'z yasalishiga doir boy manbalarda uning quyidagi turlari farqlanadi:

a) affiksatsiya;

b) Kompozitsiya;

c) Leksik semantik;

d) Fonetik.

Bundan tashqari, yangi leksemalar vujudga kelishining transpozitsiya, konversiya usullari borligi ham tegishli manbalarda qayd etiladi. «O'zbek tili so'z yasalishi» asari muallifi A. Hojiyev o'zbek tili so'z yasalish usullari haqida so'z yuritar ekan, so'z yasalishi deganda, qanday usul bilan bo'lsa ham yangi so'z (leksema) hosil bo'lishini ta'kidlaydi. Muallif «So'z yasalishining asosiy usullari deb ko'pchilik tomonidan tan olinayotgan va lingvistik adabiyotlarda qayd etilayotgan usullar quyidagilar:

1) Semantik usul.

2) Fonetik usul.

3) Sintaktik-leksik usul.

4) Affiksatsiya usuli.

5) Kompozitsiya usuli.

6) Abbrevatsiya usuli.

Ekanligini bayon qiladi[1].

Bu davrda lison va nutq izchil farqlanmaganligi sababli muallif fikrlarida so'z va leksema o'zaro bir-birini qoplovchi tushunchalar sifatida talqin qiladi. Olim so'z yasalish usullari xususida fikr yuritar ekan, «ko'rib o'tilgan besh xil so'z yasalish usullaridan uchtasini semantik (leksik-semantik), fonetik va sintaktik-leksik usul deb atalishi til hodisasiga ko'ra, keying ikki usulning atalishi esa so'z yasalishi ma-

[1] Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B. 29.

terialiga ko‘ra, ya’ni affiks vositasida yasalish usuli affiksatsiya leksema qo‘shish yo‘li kompozitsiya usuli deb atalishini aytib, dastlabki uch hodisani lisoniylashuv, keying ikki usulni esa so‘z yasalishi sifatida qayd etadi.

Onomastik sathning kengayishi ergonimik birlilarning yasalish jarayonida yangi usullarni vujudga keltirdi. Onomastik birlilarning yasalish xususiyatlari onamastik tadqiqotlarda markaziy o‘rin tutadi. Ergonimlarning funksional yo‘nalishini to‘g‘ri baholash, ularning lingvistik ahamiyatini aniqlash uchun ularning yasalish usullarini tahlil qilish va tasniflash zarur. Jumladan, M.Saparniyazova o‘zbek tilida ergonimlarning hosil qilinishida fonetik vositalar - unli yoki undosh tovushlarning takrori muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Tilshunoslika unli yoki undosh tovushlar simmetriyasi, ya’ni takrori asosida hosil bo‘lgan ergonimlar fonoergonimlar deyiladi. Bunday ergonimlarda aksariyat hollarda informativlikning ifodalanishi ahamiyatli emas. Balki ularning jarangdorligi, musiqiyligi, jozibadorligi muhim o‘rin tutadi. Masalan, *«Sim-Sim»*, *«Kish-Mish»* (restoranlar), *«Jiz-Biz»* (kafe)[1].

Shuni ta’kidlash kerakki, ergonimlar paydo bo‘lgandan beri ularni nomlash usullari bir necha bor o‘zgargan. G.A. Donskova, T.P. Romanovalar ergonimlar rivojlanishining diaxronik jarayonlari haqida yozganlar. G.A. Donskova zamonaviy ergonimika haqida shunday yozadi: «Hozirgi vaqtda nominatsiya obyektlarining sohasi va maydoni kengaymoqda hamda bu nominatsiyaning usullari murakkablashib bormoqda. Olamning lingvistik tasvirini qisman dunyoqarashni, qadriyatlarga yo‘naltirilganlikni va boshqa omillarni qayta qurish, birinchi navbatda, ergonimik makon va yaqin ergonimik makon tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi[2].

Shuningdek, ergonimlarni shakllantirish usullarining o‘zgarishi va kengayishi sabablari:

-ko‘rsatilayotgan obyektlarni kengaytirish;

-xizmatlar turlarini kengaytirish;

-bozorda raqobatning kuchayishi.

Onomastikaning asosiy masalalaridan biri bu sun’iy ikkilamchi nominatsiyani yaratishda asoslanmagan belgini o‘zboshimchalik bilan ixtiro qilish masalasidir[3]. Ikkilamchilik – bu insonning atrofdagi olamni bilish jarayonida tabiiy ravishda rivojlangan umumiy nomlarga nisbatan xos nomlarning xususiyatlaridan biri. Deyarli har bir nomshunos onomastik birlilarni o‘rganishda ierarxik tizimlarini qurish muammosiga taalluqli bo‘lgan, umumiy nomlarning yasalish usullariga asoslanib shug‘ullanadi. Shunday qilib, deyarli barcha ergonimlar avvaldan mavjud so‘zlar bilan tovush yoki semantik assotsiatsiyalardan kelib chiqadi. Ergonimlar tasnifini yaratishning qiyinligi shundaki, bu turdagi nomlar tizimi doimiy shakllanish bosqichida bo‘ladi. Onomastik lug‘atning bu qatlami doimiy ravishda o‘sib boradi, nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham o‘zgarishlarga uchraydi: ergonimlarning yasalish usullari soni ortib bormoqda. Ergonimlar turlicha yasalishi mumkin. Ayrim tilshunoslar uning hosil bo‘lish tasnifini quyidagicha taklif etishadi[4]:

1. Affiksli : (*«Zoirbek»* restorani).

2. Qo‘shma so‘z shaklida (Sintaktik usul): Bunda ergonimlar ikki yoki undan ko‘p asosdan tashkil topadi. (*«Shoxsaroy»* to‘yxonasi, *«Xan Sultan»* restorani, *«Yes Boss»* restorani, *«Pub Hause» kafesi*).

3. Qisqartma so‘zlar (*O‘zFA*).

4. Sonli komponentlar: (*«Apteka A5», «Kafe 777»*).

5. Ma’nosi yoki kelib chiqishi noma’lum ergonimlar: («*Нид-зар» oshxonasi*).

Ayrim tilshunoslar boshqa tasnifni taklif qilishadi[5]:

1. Ergonimlar sifat, fe’l, ravish, son, sifatdoshlar, yuklamalar va undov so‘zlar bilan ifodalanadi: «*Mo‘jizaviy shifo»* xususiy klinikasi.

2. Ergonimlar gap va so‘z birikmalari shaklidagi ikki va undan ortiq so‘zlardan hosil bo‘lgan. Masalan, *«Akant Guest Houses»* mehmonxonasi, *«Karvonsaroy»* mehmonxonasi, *«Comfortable Home Stay»* mehmonxonasi.

3. Antroponimlar, toponimlar, mifonimlardan hosil qilingan ergonimlar.

Antroponim («*Begzod shifo»* xususiy klinikasi), toponim («*Termiz»* mehmonxonasi), mifonim (*«Afrotida»* restorani*)* bularni shunday izohlash mumkinki, ularni ko‘pchilik biladi, ular ko‘p ma’noni ifodalaydi va yana ulardagi xususiyatlar ergonimik obyektda aks etadi.

4. Xorijiy so‘zlardan hosil bo‘ladi. Masalan*, «Pub house», «Три медведя».*

Quyidagi jadvalda faqat tadqiqot jarayonida aniqlangan ergonimlarning yasalish usullari keltirilgan. Shuni ta’kidlash joizki, tasnif asoslari Dog‘iston davlat texnika universitetining rus tili kafedrasida G. N. Alievava va F.F.Alistanovalar hamkorligida ishlab chiqilgan. Biz taqdim etayotgan tasnif kengaytirilgan va to‘ldirilgan hamda hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Saparniyazova M. O‘zbek tili ergonimlarning struktur-sesmantik lingvomadaniy va pragmatic tadqiqi: Avtoreferat. – Toshkent, 2023. – B. 24.

[2] Донскова Г.А Сравнительно – сопоставительная характеристика динамики эргонимической номинации Нижнего Повольжья и Заподного Казахстана. – Уральск, 2004. – С. 26.

[3] Носенко, Н.В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дис. …канд. филол. – Новосибирск, 2007.

[4] Курбанова, М.Г. диссертация Эргонимы современного русского языка: Семантика и прагматика. – Астрахань, 2014.

[5] Емельянова А.М Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города. – Уфа, 2007.

*1-**jadval***

Ergonimlarning yasalish usullari

Yasalish usuli	Guruhlar	Qo‘shimcha guruhlar	Namunalar
Morfemik derivatsiya	Affiksatsiya	Suffiks	*«Do‘stlik»* kafesi
		Prefiks	*«Intermebel»* mebel saloni
	Sintaktik	Ot+ot Son+ot	*«Shohsaroy»* to‘yxonasi *«Mingchinor»* oshxonasi
Substantivatsiya	Sifatlardan		*«Obod»* mehmonxonasi
	Fe’llardan		*«Yuksalish»* sog‘lomlashtirish markazi
	Sondan		*«03»* dorixonasi
	Undovdan		*«Rahmat!»*o‘quv markazi
Leksik-sintaktik usul	Ergonim birikmalar	Sifatli birikma	*«Nafis mebel»* mebellar uyi
		Sonli birikma	*«4 fasl»* kiyimlar do‘koni,
		Ko‘makchili birikmalar	*«Collection for man»*
	Gap shaklidagi ergonimlar		*«Marry me»* to‘y xizmatlari studiyasi
Abriviatsiya			
Leksik-semantik onimizatsiya	Oddiy		*«Gullar»* do‘koni
	Ma’no ko‘chirish usuli bilan shakllangan	Metonimik onimizatsiya	*«Brilliant»* kelin liboslari saloni
		Metaforik onimizatsiya	*«Qalbinur»* kelin liboslari saloni
	Transonimizatsiya	Antroponim ergonim	*«Xolbi»* restorani
		Toponim-ergonim	*«Dubai»* restorani
		Mifonim ergonim	*«Alpomish»* to‘yxonasi
		Astranomim ergonim	*«Orion»* mehmonxonasi
		Pragmatonim ergonim	*«Nike»* sport kiyimlari do‘koni

Ergonimlarni shakllantirishning har bir usulini kelgusi ishlarimizda alohida ko‘rib chiqamiz. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ergonimlarning morfemik shakllanishida affiksatsiya va sintaktik usullari asosiy va yetakchi usullar hisoblanadi.

Rezyume. Maqolada ergonimlarning yasalish (morfologik derivatsiya) xususiyatlari yoritilgan va misollar asosida tahlilga tortilgan.

Resume. In the article, the features of the formation (morphological derivation) of ergonims are highlighted and analyzed based on examples.

Резюме. В статье выделены и проанализированы на примерах особенности образования (морфологической деривации) эргонимов.